

ERNEST SETON-TOMPSON ASARLARIDA EKOLOGIYA MUAMMOLARI**Ismoilova Risolat Oybekovna**

O‘ZDJTU Tarjimonlik fakulteti talabasi

G‘aybullayeva Nigina Alisherovna

O‘ZDJTU Tarjimonlik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Akromova Farizod NuriddinovnaO‘ZDJTU, o‘qituvchi akromovaf@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada mashhur yozuvchi va tabiatshunos Ernest Seton-Tompsonning ijodi hamda uning tabiatni saqlash yo‘lidagi xizmatlari haqida so‘z boradi. AQSH va Kanadada adibning asarlari asosan tabiatni muhofaza qilish g‘oyalari nuqtai nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa, adabiyot sohasidagi faoliyatiga kam e‘tibor qaratilgani ta‘kidlanadi. O‘zbekistonda esa Seton-Tompson ijodi hanuzgacha maxsus ilmiy tadqiqot ob‘yekti bo‘lmagani qayd etiladi. Shu bois, uning tabiat va inson munosabatlarini yorituvchi asarlarini ona tilimizga tarjima qilish va ijodini chuqur ilmiy o‘rganish zarurligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Ernest Seton-Tompson, tabiatni saqlash, adabiyot, jonivorlar, tarjimalar, ilmiy tadqiqot, tabiat va inson munosabatlari, Kanada, AQSH.

E.Seton-Tompson (1860-1946) asarlari xorijiy adabiyotshunoslar tomonidan XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmi realistik adabiyotining eng yorqin va yuksak badiiy qiymatga ega qismi sifatida baholanadi. Kelib chiqishi angliyalik bo‘lgan E.Seton-Tompson – kanadalik adib, rassom-animalist, jamoat arbobi. Umrining ko‘p qismini AQSHda o‘tkazgan, amerika fuqaroligini olgan. Shu sababli uni amerikalik adib ham deb atash mumkin. E.Seton-Tompson ijodini o‘rganishning muhim ahamiyati shundaki, uning realistik asarlari ma‘lum ma‘noda XX asrning birinchi yarmi Kanada va AQSH inglizzabon adabiyotining yuksak estetik darajasini, o‘ziga xosligi va voqelikni tasvirlashning xilma-xilligini belgilaydi.

Istiqlol sharofati tufayli mamlakatimizda xorijiy tillarni chuqurroq o‘rganishga va turli sohalarda xorij bilan aloqalarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. «Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san’atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash imkoniyati bizda mavjud». Shu o‘rinda chet el adabiyoti yirik vakillarining ijodini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. E.Seton-Tompson shunday adiblardan biri hisoblanadi.

E.Seton-Tompsonning asarlari dunyoning yuzlab yirik tillariga, shu jumladan, o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan. Adibning “Yovvoyi yo‘rg‘a” (jonivorlar haqidagi hikoyalar) kitobini taniqli adib Tog‘ay Murod tarjima qilgan. Bu kitob haqida E.Seton-Tompsonning o‘zi “Mening hayotim” (Trail of an Artist-Naturalist: The Autobiography of Ernest Thompson Seton, 1940) asarida shunday yozadi: “Bu kitob,

shubhasiz, adabiyotda jonivorlarni tasvirlash bobida yangi, realistik yoʻlni boshlab berdi. Unda birinchi boʻlib jonivorlar turish-turmushi haqqoniy tasvirlab berildi. Shu vaqtgacha jonivorlar haqida masallar, ertaklar, hikoyalar mavjud boʻlib, ularda jonivorlar havon terisini yopinib olgan odam boʻlib yurib-turdi, odam boʻlib gapirib-gaplashdi”.

E.Seton-Tompson jonivorlar haqidagi adabiy janrning asoschilaridan biri boʻlib qoldi; u dunyoning turli burchaklarida ijod qilgan va qilayotgan koʻplab animalist adiblarga katta taʼsir koʻrsatdi. E.Seton-Tomson hayvonlar haqida 84 asar yozib qoldirdi. “Seton-Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton-Tompsongacha yaratilmagan edi, undan keyin ham yaratilmadi. Tabiat, xususan, jonivorlar haqida minglab asarlar yozildi, ammo hech kim Seton-Tompsondan oshib oʻtolmadi. Hech kim Seton-Tompson boʻlolmadi”. (B.8).

Seton-Tompsonning oʻzbek tilida chop etilgan “Yovvoyi yoʻrgʻa” kitobi bir qissa va yigirma bir hikoyadan tashkil topgan boʻlib, kitobga hikoyalardan birining nomi berilgan. Bizningcha kitobning shunday nomlanishini oʻzbek tarjimoni belgilagan, zero marhum adib Togʻay Murodning otlarga mehri, muhabbati oʻzgacha boʻlganligini kitobxonlar yaxshi bilishadi (jumladan, adibning “Ot kishnagan oqshomda” asari).

Kitobdan joy olgan qissa “Domino” deb ataladi, unda bir tulkinning hayoti haqida hikoya qilinadi. Qissa uch boʻlimdan iborat boʻlib, ularda tulkinning dunyoga kelishidan umrining oxirigacha bosib oʻtgan yoʻli, uning “oltin bolaligi”, yaxshi va yomon kunlari, raqiblari bilan kurashlari, magʻlubiyat va zafarlari aks ettirilgan.

Kitobdagi hikoyalarda Shimoliy Amerikaning oʻrmonlarida, keng preriyalarida, dengiz va koʻllarida yashovchi turli jonivor va jonzotlar hayoti tasvirlangan.

Bugungi kunda bashariyat oʻzini oʻzi qirib tashlashning oldini olishga intilayotgan, atrof-muhitni asrash va ekologiya masalalariga katta eʼtibor qaratayotgan bir paytda Seton-Tompson asarlarini oʻrganish, adib gʻoyalarini nafaqat bolalar va oʻsmirlar, balki kattalar oʻrtasida ham targʻib qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu haqida adibning oʻzi shunday degan edi: “Aminmanki, jonivorlarning har biri bizga qoldirilgan bebaho meros boʻlib, bizning ularni na qirib tashlashga va na bolalarimizning qoʻllarida azob chekishlarini koʻrib turishga haqqimiz yoʻq”.

AQSH va Kanadada nashr etilgan kitoblarda E.Seton-Tompsonning asosan tabiatni saqlash borasidagi xizmatlariga alohida eʼtibor qaratiladi. Adibning adabiyot sohasidagi xizmatlari haqida Kanadada atigi bir asar, Rossiya matbuotida qisqagina bir maqola eʼlon qilingan. Bizda esa Seton-Tompson ijodi afsuski shu paytgacha maxsus ilmiy tadqiqotning obʼyekti boʻlgan emas.

Shu sababli, bir tomondan, Seton-Tompsonning tabiatga, uning bagʻrida yashayotgan jonivorlarga, tabiat va inson oʻrtasidagi murakkab munosabatlarga

bag'ishlangan boshqa asarlarini ham ona tilimizga o'girish payti kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan uning ijodi ham ilmiy izlanishlarda tadqiq etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 139.
2. Seton-Tompson E. Yovvoyi yo'rg'a /rus tilidan Tog'ay Murod tarjimasi/. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989; Noshir nashriyoti, 2010.
3. Tog'ay Murod. Seton-Tompson kitobiga so'zboshim/ Seton-Tompson E. Yovvoyi yo'rg'a. – T.: Noshir nashriyoti, 2010. – B.8.